MARKAZIY OSIYODA ŞAJARA ORQALI QARINDOŞLIKNI ÖRGANIŞ OMILLARI

Sarimsoqov Zakir Jabbaroviç,
Adabiyot, san'at va axborot kommunikatsiyasi böyiça xalqaro akademik
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340046

Annotatsiya: Markaziy Osiyo hududida qadimdan istiqomat qilib kelayotgan xöja etnik guruhiga xos qadimgi aholi hayoti va ijtimoiy turmuşi faoliyatida tarixnavislik, tarixçilik, arxeologik, etnografik, tilşunoslik bilan teng qatorda köriladigan şajaraşunoslik haqida ma'lumotlar muhim dalillar asosida yoritib borildi. Qarindoşlik riştalari va munosabatlarining kişilik jamiyatida qadimdan muhim ahamiyatga ega bölganligi, ötmişda insoniyat tabiat şartlari oldida ojiz bölgan şaroitlarda kişilar qon-qarindoşlik asosida birgalaşib hayot keçirganlari, bir-birlari töğrisida ğamxörlik qilganlari ilmiy-ijtimoiy, ma'naviy-madaniy jihatdan talqin qilindi va ilmiy-ommabop uslubda örganildi. Qarindoşlikka ham axloqiy-ma'naviy, ham huquqiy tamoyil sifatida amal qilib kelingan omillar, qadimda odat huquqi va din huquqi tamoillariga asosan bir neça holatlar böyiça huquqiy-me'yoriy hujjatlar berildi. Meros va vorislik masalalari, nikoh tuzişda hisobga olinişi lozim bölgan çeklovlar tizimi, kişilarni bir-biriga nisbatan ğamxörligi va özaro huquq hamda majburiyatlarini belgilovçi omillar tizimli körsatiib ötildi. Markaziy Osiyo xöjalari tarixi, jumladan, şajarasi haqida mulohaza va tafsilotlar dalil va asosga ega bölişi, holat va voqealar tarixan töğri yoritilişi muhim masalalardan biri hisoblanişi ilmiy tadqiq etildi. Şajaraşunoslik va toponimlarga oid ba'zi masalalar ham tanqidiy örganildi va tahlil qilindi.

Kalit sözlar: qonun, şajara, geneologiya, meros va vorislik, kodeks, DNK ma'lumotlari, "Janubiy Qozoğiston" viloyat gazetasi.

Аннотация. В статье на основе важных фактических материалов освещаются сведения о генеалогии (шежире), рассматриваемой наряду с историографией, историей, археологией, этнографией и языкознанием как важный источник изучения жизни и общественного быта древнего населения, в частности этнической группы ходжа, издавна проживающей на территории Центральной Азии. С научно-социальной и духовно-культурной точек зрения интерпретируется значение родственных связей и отношений в человеческом обществе с древнейших времён, а также рассматриваются исторические условия, в которых люди, будучи бессильными перед силами природы, объединялись на основе кровного родства, совместно жили и заботились друг о друге. В научно-популярном стиле изучаются факторы, обусловившие соблюдение родственных отношений как нравственно-духовного, так и правового принципа. На основе норм обычного и религиозного права древности приводятся нормативно-правовые положения, регулирующие различные аспекты родственных отношений. Системно раскрываются вопросы наследования и правопреемства, ограничения, учитываемые при заключении брака, а также факторы, определяющие взаимную заботу людей, их права и обязанности по отношению друг к другу.

Научно исследуется вопрос о необходимости опоры на достоверные факты и обоснованные источники при изучении истории ходжей Центральной Азии, в том числе их родословной, а также важность исторически объективного освещения событий и явлений. Отдельные вопросы генеалогии и топонимики подвергаются критическому изучению и анализу.

Ключевые слова: закон, родословная, генеалогия, наследство и правопреемство, кодекс, данные ДНК, областная газета «Южный Казахстан».

Abstract: Information about genealogy (şajaraşunoslik), which is regarded on fn equai footing with historiography, historial scholarship, archaeology, ethnography, and linguistics, un the life and social activities of the ancient population characteristic of the Khoja enhnic group that has tesided in the territory of Central Azia since ancient times, has been elucidated on the basis of important evidence.

The kinship ties and relationships, which have held significant importance in human saciety since ancient times, were interpreted from a scientific-social and spiritual-cultural perspective. It was explained that in the past, under harsh natural conditions, peopte lived together on the basis of biood kinship, supported each other, and that kinship has both ethical-moral and legal dimensions.Factors such as customary law and religious law principles that have been applied to kinship were highlighted,and in ancient times, legal-normative documents were issued regarding several specifis cases, lssues of inheritance and succession,the system of restrictions that must be taken into account in marriage contracts, the mutual care of people towards each other, and the factors determinind mutual rights and obligations were systematically hresepted.

The histoy of the Centrel Adsion hodja people, including detailed and evidence-based discussions and descriptions of their genealogy, the correct historical illumination of cerried out with critical analysis.

Keywords: law, geneology, inheritance and succession, code, DNF data, “Southern Kazakhstan” regijnal newspaper.

Kiriş

Markaziy Osiyo hududida qadimdan istiqomat qilib kelayotgan xöja etnik guruhiga xos qadimgi aholi hayoti va ijtimoiy turmuşi faoliyatida tarixnavislik, tarixçilik, arxeologik, etnografik, tilşunoslik bilan teng qatorda köriladigan şajaraşunoslik ham muhim ahamiyat kasb etadi hamda ilmiy izlanişlarni talab qilidi. Bu qarindoşlik riştalari bilan boğliq zanjirsimon boğlanişdir. Aytaylik, bir umumiy uçinçi ajdoddan kelib çiqqan şaxslar qarindoşlar hisoblanadi. Bunda ikki şaxs örtasidagi töğri şajara böyiça qarindoşlikning yaqinligi va qarindoşlik darajasi, ya’ni tuğiliş muhimdir. Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarining aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va şunga öxşaşlar yon şajara böyiça qarindoşlar hisoblanadi. Bundan boşqa yaqinliklar ham bölişi mumkin.

Bolalar ota-onasiga nisbatan töğri şajaradagi birinçi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan-ikkinçi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan-uçinçi darajadagi qarindoş hisoblanadi. Töğri, şajara böyiça qarindoşlar yon şajara böyiça qarindoşlarga nisbatan yaqindir. Qarindoşliklarning ikki şaxs örtasida uzoq-yaqinligini aniqlaşda,

darajasining soni yoki şu şaxslardan birining özini hisobga qöşmay turib, undan kelib çiqqan avlodlar soni hisobiga olinadi. Ajdodlar tomon töğri şajara böyiça ular uçun umumiy bölgan şaxs (ajdod) ga qarab va undan esa, avlodlar tomon-ulardan boşqasiga qarab hisob olib boriladi. Qarindoşlikning ikkinçi darajasida tuğişgan aka-uka va opa-singillar, uçinçi, toğa va amaki, amma va xola öz jiyanlari bilan qarindoş sanalsa, törtinçi, toğavaççа, amakivaççа, ammavaççа va xolavaççalar turadilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Qarindoşlikning ilmiy-amaliy şarhlariga e'tiborimizni qaratsak, oilaviy-huquqiy munosabatlarda kişilar örtasida qarindoşlikning belgilaş mezonlari öz ifodasini topganligini köramiz. Qarangki, qarindoşlik riştalari va munosabatlari kişilik jamiyatida qadimdan muhim ahamiyatga ega bölgan. Ötmişda insoniyat tabiat şartlari oldida ojiz bölgan şaroitlarda kişilar qon-qarindoşlik asosida birgalaşib hayot keçirganlar, bir-birlari töğrisida ğamxörlik qilganlar. Demak, qarindoşlikka ham axloqiy-ma'naviy, ham huquqiy tamoyil sifatida amal qilib kelingan. Bu qadimda odat huquqi va din huquqi tamoillariga asosan bir neça holatlar böyiça huquqiy-me'yoriy dalil hisoblangan. Meros va vorislik masalalariga e'tibor qaratilgan. Nikoh tuzişda hisobga olinişi lozim bölgan çeklovlar tizimi, kişilarni bir-biriga nisbatan ğamxörligi va özaro huquq hamda majburiyatlarini belgilovçi omil sifatida qaraş muhim sanalgan. Şuningdek, ayni vaqtda qarindoşlik yuridik mezon sifatida fuqarolik kodeksi, soliq kodeksi, uy-joy kodeksi, "Oilaviy tadbirkorlik töğrisida" gi Qonunning tegişli moddalarida belgilab qöyilgan. Uşbu qonun hujjatlarida qarindoşlikni ularning tartibga soliş predmeti nuqtai nazaridan yuridik mazmuni qayd qilingan. Biroq qarindoşlikning yuridik kategoriya sifatidagi örni Oila kodeksining quyidagi şarhlanayotgan moddasida belgilab qöyilgan. Şarhlanayotgan moddada qarindoşlik biologik asos böyiça belgilanadi. Bunda avlodlar va ajdodlar örtasidagi boğlaniş, şajara (genioligiya) böyiça örganiladi. Ayrim tarixiy-adabiy, tibbiy mavzulardagi asarlarda kişilar örtasidagi qarindoşlikni yaqqolroq tasavvur qiliş uçun şajara daraxti tuzilganligiga duç kelamiz. Bu daraxtning yagona öq ildizi töğri çiziq böyiça belgilanib, uning şoxlari yondoş qarindoşlik tarmoqlari asosida belgilanadi. Bir umumiy uçinçi şaxsdan (otadan yoki onadan yoxud ota-onadan) kelib çiqqan şaxslar bir-biriga nisbatan qarindoş hisoblanadi. Odatda, ular ajdod yoki adjodlar deb ataladi.

Ikki şaxs örtasidagi töğri çiziqli şajara böyiça qarindoşlikning yaqinligi, qarindoşlik darajasi, ya'ni ular örtasida qança avlodlar yoki ajdodlar böğini borligi bilan belgilanadi. Böğinlar soni qançalik kam bölsa, şunçalik qarindoşlikning darajasi yaqin hisoblanadi.

Ta'kidlaş joizki, bola bilan ota-ona örtasida oraliq böğin mavjud emas. Şu sababli ham qarindoşlikda bolalarni ota-onasiga nistatan töğri şajaradagi birinçi darajali qarindoş deb belgilanadi. Nevara bilan bobo va buvi örtasida esa oraliq böğin, ya'ni nevaraning ota-onasi mavjud. Binobarin, nevara bobo-buvisiga nisbatan ikkinçi darajali, evara bilan katta bobosi va buvisi örtasida ikki ajdodlar böğini, ya'ni evaraning ota-onasi hamda evaraning bobo-buvisi mavjud. Demak, evara katta bobosi va buvisiga nisbatan uçinçi darajali qarindoş hisoblanadi. Qarindoşlik darajasi jinslar farqi hisobidan boşqaça ham bölişi mumkin.

Töğri çiziqli şajaradan farqli ravişda yon şajara ham mavjud. Qonunga köra, aka-uka, opa-singil va ularning bolalari, ota-onaning aka-uka, opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka, opa-singillari va ularning bolalari va şunga öxşaş yon şajara böyiça qarindoşlar hisoblanadi. Umumiy qoida böyiça töğri şajara böyiça qarindoşlar yon şajara böyiça qarindoşlarga nisbatan yaqindirlar. Masalan, ota-ona va farzand aka-uka, toğa-xolaga nisbatan yaqin qarindoş hisoblanadi va bu holat qarindoşlar örtasidagi meros munosabatlarida va aliment munosabatlari böyiça qonunlarda hisobga olingan. Ba'zi holatlarda töğri şajara böyiça qarindoşlar va yon şajara böyiça qarindoşlar töğri böğinlar va yon böğinlar darajasi bir xil bölganda meros munosabatlarda teng huquqlarga ega böladi.

Biz yuqorida töğri şajara va yon şajara iborasini qölladik. Bu siz aziz öqirmanlarni bir oz taajjubga solgan bölişi yoki öqiş va örganiş jarayoningizda qiyinçiliklar köngligizni xira qilgan bölişi mumkin. Özbek adabiy tilining me'yoriy sözlaşuv negizini bilmaslik, til boylida kamçiliklar köringani, aniqroq aytadigan bölsak, kitob öqimaslik, luğat boyligining nuqsonliligi, qisqasi, özbek böla turib, özbek tilini bilmasligimiz va hokazalar boşni qotiradi. Sizning harakatingiz yuksak şaraf ekanligini anglagan holda bu ikki iboraning mazmunini berib ötişni lozim topdim: Şajaraga bir avlod, oila yoki uruğning kelib çiqişi va nasl-nasab davomiyligini körsatuvçi tarixiy jadval yoki çizma sifatida yondaşsak, "Töğri şajara" iborasi nasl-nasabning heç qanday buzilişlarsiz, qöşimçalarsiz, tarixiy va genitik jihatdan aniq hamda haqqoniy tarzda otadan bolaga yoki avloddan avlodga ötişini anglatadi. Yon şajara esa ota-onasi bir yoki umumiy ajdoddan (uçinçi şaxsdan) kelib çiqqan, ammo bevosita bir-biridan tuğilmagan qarindoşlar tarmoğidir. Bu tuşunçaga köra, ota-onaning aka-ukalari, opa-singillari va ularning farzandlari (amakivaççа, toğavaççа, xolavaççalar) yon şajara böyiça yaqin qarindoşlar hisoblanadi. Töğri şajara bevosita ota-onadan bolaga (farzand-ota-ona-bobo) ötsa, yon şajarada umumiy ajdoddan tarqalib ketgan nasllar nazarda tutiladi. Yana muhimi, hozirda Özbekistonda nasl-nasab şajarasi böyiça töğri tuşungan qarindoşlar örtasida, tuğişgan va ögay aka-ukalar bilan opa-singillar örtasida, şuningdek, farzandlikka oluvçilar bilan farzandlikka olinganlar örtasida nikoh qurişga yöl qöyilmaydi. Bundan taşqari, nikohdan oldin tibbiy körikdan ötiş tartibini buzganlik uçun javobgarlik belgilaş taklif etilmoqda. 2022-yilda yon şajara böyiça yaqin qarindoşlar örtasidagi nikohni taqiqlaş taklif qilingan edi.

Tahlil va natijalar

Endi şajara haqida batafsilroq izoh beramiz: Şajara arabça söz bölib, "daraxt" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa, sulola daraxti, nasab silsilasi yoki nasabnoma kabi ma'nolarni ifoda etadi. Ötmişdan to hozirgi kungaça insonlar öz ajdodlari bilan qiziqib kelişgan. Şuningdek, kelajak avlodlarga ham öz sulolalarini davom ettirişda şajara tizimini yaxşi iş deb körganlar. Ilmi ansab ya'ni nasab ilmi avvaldan maşhur va bugungi kunimizgaça bu bilim odamlar orasida öz ahamiyatini yöqotmagan. Şuningdek, nasab bilimiga doir juda köp kitoblar naşr qilingan.

Geneologiya-kişilarning kelib çiqişi, ajdodlari va qonqarindoşlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmoği-geneologiya fani örganadi. Podşolar, hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar nasabnomasiga qiziqiş qadim zamonlardanoq

bölgan, lekin örta asrlarda Şajara imtiyozi tabaqalarning paydo bölişi va ularningn avlod-ajdodlarini rasmiylaştirişga qiziqişning kuçayişi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Bu, öz navbatida, XV asrdan boşlab Şajara örtasidagi nikoh aloqalari haqida guvohlik beruvçilarning paydo bölişiga olib kelgan. U davrlarda uruğ yoki bir-biriga yaqin bir neça uruğ a'zolarining nasl-nasabiga oid bir neça daftarlar tuzila boşlagan. Fatva hujjatlari tasdiqlangan. Markaziy Osiyoda şajaraga oid dastlabki yirik asarlar XV-XVII asrlarda paydo bölgan. Ayniqsa, Abulğoziy Bahodirxonning "Şajarai turk" va "Şajarai tarokima" asarlari XIII-XVII asrlardagi möğil va turk uruğlari hukmdorlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Markaziy Osiyoda nasab daftariga xöjalar, sayyidlar va boşqalar ega bölib, bu hujjatlar ularning payğambar (s.v.a), sahobalar, tarxon, beklar naslidan kelib çiqqanligini körsatuvsi dalil sifatida, şuningdek, solih tölaş, xalq haşarlariga çiqiş va boşqa işlarda alohida imtiyozga, umuman, jamiyat hayotida yuqori mavqega ega bölişi uçun xizmat qilgan. Şajara hujjatlari dastlab şaxsning siyosiy mavqeiga köra, guvohlar iştirokida hukdor huzurida tuzilgan va uning muhri bilan tasdiqlangan. Keyinçalik hukmdorlar avvalgi muhrlarni körib tasdiqlab beraverişgan.

Şuni ham ta'kidlaş kerakki, biz har ne çoğlik öz ota-bobolarimizni, kelib çiqqan naslimizni kimlarga borişini juda-juda istasakda, unga aniq va ravşan erişişimiz ança muşkuldir. Lekin nima bölganda ham qölimizda saqlanayotgan, bobolarimizdan bizgaça me'ros bölib qolgan şajaralarni örganiş va tadqiq qiliş jarayonida biz köpgina ma'lumotlarga ega bölamiz. Juda bölmaganda özimizga ma'lum bobolarimizdan e'tiboran hozirgi avlodgaça bölgan şajarani tuziş va uni davom ettiriş imkoniyatiga egamiz.

Şajara yaratiş payğambar s.a.v. avlodlari, sohabalar va çoriyorlar, podşo va hukmdorlardan taşqari mahalliy qabilalarning orasida ham mavjud bölgan. Dunyoning turli mamlakatlarida nasabnomalar yoziş odati qadimdan şakllanib va hozirgaça davom etib kelmoqda. Ba'zi mamlakatlarda, xususan, ğarb davlatlarida şajarani tuziş va davom ettiriş ançagina oson iş. Çunki ularda ança yillardan buyon an'ana tarzida aylanib borgan bu holat, ya'ni sulola vakillarini qayd qilib turiş odati bölgan.

Özbekistonda ham vatandoşlarimizning oilaviy tarixi va avlodlar zanjirini aniqlaş böyiça imkoniyatlar yanada kengaymoqda. Prezident farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-sentyabrdan mamlakatda "Şajara" axborot tizimi töliq işga tuşiriş belgilandi. Uşbu yangi platforma vatandoşlarimizga öz şajarasini elektron tarzda şakllantiriş, tarixiy manbalar va ilmiy ma'lumotlarga suyangan holda aniq va töliq avlodlar tarmoğini körsatiş imkonini beradi. Tizimning asosiy maqsadi-odamlar öz avlodlari haqidagi ma'lumotlarni tartibi, işonçli va quloy elektron manba orqali olişini ta'minlaşdan iborat. "Şajara" axborot tizimi tarixiy arxivlar, oilaviy hujjatlar va zamonaviy DNK ma'lumotlarini birlaştirgan holda vatandoşlarimizga keng qamrovli xizmat körsatadi.

Prezident farmonida ta'kidlanişiça, yangi servis orqali FHDYO ning elektron arxivi, davlat va idaraviy hujjatlar asosida oila şajarasi böyiça ma'lumotlarni şakllantiriş, DNK ma'lumotlari orqali etnik kelib çiqişni aniqlaş imkoniyatlari yaratiladi. Oila şajarasi böyiça xizmatlar YAIDXP va davlat xizmatlari markazlari orqali davrlar qamravida taqdim etiş faoliyati yuzaga keladi. IX asrdan 1917-yillar, 1918-1945-yillar,

1946-yildan hozirgi kungaça bölgan davrlar qamrab olinadi.

Şajaralarni şartli ravişda yetti yönalişga taqsimlaş mumkin.

1.Payğambarlar xonadoniga mansub bölgan avlodlar silsilasi, ya'ni siyyidlar. Barçamizga ma'lum bölgan Muhammad (s.a.v.) ning qizlari Fotima onamiz va kuyovlari hazrati Ali (r.a.) ning farzandlari Hasan va Husayindan tarqalgan avlodlari şajarasi. Hazrati Ali (r.a.) ning Rumlik xotini Hanifa onamizdan tuğilgan Muhammadi Hanafiya xöjalari şajarasi.

2.Payğambar (s.a.v.) sahobalaridan tarqalgan avlodlar. Xusisan, Abu Bakr (r.a), Umar (r.a.) va Usmon (r.a) va ularga öxşaş maşhur ashablar zurriyodi silsilasi.

3.Olimu fozillar, mutafakkir zotlar hamda valiylarning avlodlari şajarasi.

4.Piri murşidlarning "irşod şajara"si. Bu esa nasab şajarasi bölmay, tariqatda murşidning muridiga bergan ruxsati hisoblanadi.

5. Podşohlar, vazirlar, beklar, amirlar, va şunga öxşaş amaldorlar şaxslarining şajarasi.

6. Kelgusi naslga meros bölib qolişi va uni davom etişiga zamin yaratgan insonlar şajarasi.

7. Özlariga ma'lum bölgan ajdodlar e'tiboran şajara tuzib, uni hozirda va kelajakda davom ettirişni maqsad qilgan ezgu niyat insonlar şajarasi.

Markaziy Osiyo xöjalari tarixi, jumladan, şajarasi haqida mulohaza bildiriş, ilmiy tadqiqot yaratiş juda murakkab va mas'uliyatli mehnatni talab qiladi. Çunki unda yozilgan tafsilot dalil va asosga ega bölişi, holat va voqealar tarixan töğri yoritilişi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Notöğri fikr bildirilsa, xatoga yöl qöyilsa, ğaliz bayonçilik bilan iş tutilsa, omma orasida tarqalgaç, öquvçilarni uzoq vaqt çalğitadi. Kitobdan kitobga, maqoladan maqolaga köçib, turli-tuman örinsiz bahslaşuvlarga sabab böladi. Şu nuqtai nazardan, avvalo "Adabiyot va san'at" gazetasida 2025-yilning iyul oyida çop etilgan akademik Komiljon Şodimetov, mehnat faxriysi Zarifboy Havazmatov, tabib Ravşanbek Teşaboyev, "Janubiy Qozoğiston" viloyat gazetasi muxbiri hammuallifligidagi "Yassaviy izidan" nomli maqolada qayd etilgan Ibrohimota va Oyişa onaga boğliq joy nomlaridagi ğaliz fikr-mulohazalar hamda Ahmad Yassaviyning qizi Gavhar Huştojdan tarqalgan avlod vakillari Past Darğom tumanida yaşayotganligi bizni taajjublantirdi. Mualliflarning ança mas'uliyatli, murakkab va ayni vaqtda xayrli işlarni mardona öz zimmasiga olganligi, ba'zi dalillarning foydali jihatlarini e'tirof etgan holda, ayrim tanqidiy mulohazalarimizni beriş joiz körinadi.

Birinçidan, maqolani öqişni boşlaşingiz bilan Samarqand viloyatining Nurobod va Past Darğom tumanlarida Ibrohimota va Yassaviy avlodlari haqida axborot beruvçilar mahoratli tarixçilar emasligi, şu sababli şajara tarixiga oid asosiy ilmiy manbalardan yetarliça xabardor emasligi sezilib turibdi. Axborot beruvçilar ilmiy dalillarni çetlab ötib, xalq rivoyatlarini yetkazişga harakat qilsalarda, tarixiy-ijtimoiy hayot manzaralaridan ança uzoq öz-özіça mantiqsiz töqimalar, biri ikkinçisini töldira olmagan sayoz çöpçaklar bilan çeklanib qolgan. Töğri, agar ildizli ilmiy tadqiqotlarga ulaş maqsadida bu rivoyatlardan foydalanişlari mumkin edi. Ammo ular ilmiy yondaşuvlardan uzoq, ya'ni "köça gapi" bilan çeklangan xalos. Ikkinçidan, biz şajaralarini tadqiq etayotgan tub aholilari xöja etnik guruhlari bölgan Onaziroat (Anazirat), Beşbarmoq hamda

bu qişloqlar yonidagi Çönqaymiş va Yurğabuloq bir neça yuz yilliklar içida tarix sanalarida yaşab, ijtimoiy hayot naşidalariga ega qadimiy madaniy meros obyektlariga boy maskan hisoblanadi. Açinarliki, bu qişloqlar bugungi kunda atamaşunoslik va nom qöyiş qoidalariga zid bölgan holatda atalib, iş yuritiş mayorlaridan çetlangan nom bilan atab kelinyotir. Beşbarmoq qişloğini Beşirmoq tarzida ÖzA nomi bilan Alişer Isroil muallifligida maqola ham çop etilgan. Keyingi damlarda Beşbarmoqni hatto Majak hududi sifatida nomlaş ham közga taşlanmoqda. Jom qişloğining yuqori qismidan ma'lum hududni qamragan tartibda Omondara mahalla fuqarolar yiğinini taşkil qiladigan madaniy-ijtimoiy tarixga ega bu qişloqlar, afsuski, Omondona-2 nomida atalib kelinmoqda.

Omondara-toponim (joy nomi) bölib, "xavfsiz, tinç, osoyişta dara (vodiy)" ma'nolarini anglatadi. U ikki qismdan iborat: omon (tinç, omonlik) va dara (toğ orasidagi çuqur vodiy, soy) sözlarining birikuvidan kelib çiqqanligi etimologik luğatlarda qayd qilingan. Lekin bu hudidiy birlikda Omondara yuqoridagi qişloqlar bilan taqqoslanganda tarixiy qamravi darajasi farqlanadi. Bundan taşqari hujjatlarda qayd qilinib kelinyotgan Omondara-2 nomi Özbekistonda atamaşunoslik va geografik obyektlarga nom beriş faoliyati qonunlariga moslaştirilganmi, Özbkeiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantiriş departamenti tarkibidagi Atamaşunoslik va toponimik obyektlarga nom beriş faoliyatini muvofiqlaştiriş bölimi tomonidan rasmiylaştirilganmi, hududda istiqomat qiluvçi aholi xabardor emas. Menimça, yana bir yaqinda paydo bölgan Beşbarmoq qişloğiga boruvçi yöl yaqinidagi "BEŞBARMOQ TOĞI" körsatiş belgisi ham mutasaddilar tomonidan örganilib, muhokamalarning oldi olinsa yaxşi bölar edi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bölsak, Markaziy Osiyo xöjalarining şajarasini, jumladan, Omondara mahalla fuqarolar yiğinidagi mavjud muammolarning yeçimini topiş omillari orqali örganilişi ayni vaqtda dolzarbligi bilan xalqimizning ijtimoiy faoliyatini va ma'naviy-ma'daniy, tarixiy ötmişini ma'nan çuqur bilişda, ta'bir joiz bölsa, ba'zi röy bergan kamçiliklarni bartaraf qilişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasi Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi. https://tex.uz
2. Abulğoziy Bahodirxon Şajarayi turk. Toshkent: Çölpon, 1992.
3. Abulğoziy Bahodirxon Şajarayi tarokima.Toşkent: Samarqand, 1995.
4. Abdullayeva M. "Şajarayi tarokima" yoki "Öğiznoma" Özbek adabiyotşunoslarining dolzarb masalalari.
5. H. Hamidiy tavalludining 80 yilligiga bağişlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent; 2015.
6. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent; Öqituvçi, 1994.
7. Sarimsoqov Z. Yalangoyoq eşonning manaviy merosi. Toshkent: Ilm-ma'rifat, 2024.